

QISHLOQ YOSHLARINING MA'NAVIYATINI SHAKLLANTIRISH, UNGA MILLIY VA DINIY QADRIYATLARNING TA'SIRI

G'ofurova Sug'diyona Abdurashid qizi

Shahrisabz davlat pedagogika instituti magistranti

sugdiyonagafurova816@gmail.com

Annotsiya -Maqolada qishloq yoshlarining ma'naviyatini shakllantirish, tafakkurini oshirish, unga milliy va diniy qadriyatlarning ta'siri, shuningdek, islomdagi ma'naviy qadriyat elementlarining xalq turmush tarzi rivojidagi roli, dunyoviy, real ma'naviy qadriyatlarga ta'siri ochib berilgan va kishilarning ma'naviy madaniyati, milliylik va diniylikning farqi, keyingi vaqtlarda islomga bo'lgan qiziqishning sabablari tahlil qilib berildi.

Kalit so'zlar-Xalqlarning ma'naviy madaniyatida islomning ta'siri, islomiy qadriyatlar, ma'naviyat va ma'rifat, islom manbalari, qadriyat tushunchasi, milliylik va diniylik, din va hurfiylik.

THE FORMATION OF THE SPIRITUALITY OF RURAL YOUTH, THE INFLUENCE OF NATIONAL AND RELIGIOUS VALUES ON IT

Annotation: The article reveals the formation of the spirituality of rural youth, the influence of national and religious values on it, as well as the role of the elements of spiritual values in Islam in the development of the people's way of life, their influence on worldly, real spiritual values, and also analyzes the spiritual culture of people, the difference between nationality and religion, and the reasons for the interest in Islam in later times

Keywords: The influence of Islam on the spiritual culture of people, Islamic values, spirituality and enlightenment, Islamic sources, the concept of values, nationality and religion, religion and freethinking.

ФОРМИРОВАНИЕ ДУХОВНОСТИ СЕЛЬСКОЙ МОЛОДЕЖИ, ВЛИЯНИЕ НА НЕЕ НАЦИОНАЛЬНЫХ И РЕЛИГИОЗНЫХ ЦЕННОСТЕЙ

Абстрактный: В статье раскрывается формирование духовности сельской молодежи, влияние на нее национальных и религиозных ценностей, а также роль элементов духовных ценностей в исламе в развитии образа жизни народа, их влияние на светские, реальные духовные ценности, а также анализируется духовная культура народа, разница между национальностью и религией, причины возникновения интереса к исламу в более позднее время

Ключевые слова: Влияние ислама на духовную культуру народов, исламские ценности, духовность и просвещение, исламские истоки, концепция ценностей, национальность и религиозность, религия и свободомыслие.

Diniy ongi bo'lmagan xalq bo'lmagan bo'lsa kerak albatta. Xalqimizning o'rta asrlarga borib taqaladigan tarixida diniy tinchlik va xalqlarning totuvligi masalasi doimo kun tartibida bo'lib kelgan. Bunday jamiyatning yaxlitligi, o'z navbatida, har bir dunyoviy davlatda erkin faoliyat yuritayotgan an'anaviy dinlarning bebaho boyligidir. O'zbekiston tarixi bilan shug'ullangan olimlar sharqda tolerantlik qadimdan mavjudligini, xususan Kushonlar davlati tarixida turli diniy e'tiqod, qavm vakillari o'zaro tinch-totuv, ahillikda yashagani Markaziy Osiyoda, hatto siyosiy raqiblarning o'zaro tolerant: xayrixohlik, bir-birini tushunish, rahm-shavqat, murosa va sabr-toqat bilan munosabatda bo'lganliklari haqida ko'plab misollar keltirganlar va hozir ham bu fazilatlar o'zgartirilmastan saqlanib qolganligi haqida fikr yuritganlar. Xalqning xususan yoshlarning ma'naviyatini shakllantirish, bir qancha obyektiv shart-sharoit va subyektiv omillarga bog'liq. Bularning orasida umuman dinlar, ayniqsa islom va uning manbalari, dunyoviy, real qadriyatlari muhim subyektiv omil sifatida yoshlar ma'naviyatini har taraflama shakllantirishga o'z

ta'sirini o'tkazmay qolmaydi. Darhaqiqat, davlatimizning o'zbek xalqi ma'naviyatini shakllantirish sohalarida olib borilayotgan siyosatlari hozirgi jahon sivilizatsiyasi talablariga mos keluvchi siyosatdir. Buning dalillaridan biri mamlakatimizda amalga oshirilayotgan vijdon erkinligidir. I. Karimov o'zining "O'zbekiston iqtisodiy islohotlarni chuqurlashtirish yo'lida" nomli asarida bunday deb yozgan edi: "Xalqning ma'naviyatini va madaniyatini, uning haqiqiy tarixi va o'ziga xosligi qayta tiklanayotganligi jamiyatimizni yangilanish va taraqqiy etish yo'lidan muvaffaqiyatli ravishda olg'a siljishida hal qiluvchi, ta'bir joiz bo'lsa, belgilovchi ahamiyatga egadir. Xalqimiz sarchashmalarining ko'zlari qaytadan ochilganligi, jahon madaniyati yutuqlariga zo'r hissa qo'shgan buyuk ajdodlarimizning madaniy va ma'naviy merosi teranligi va chuqurligi anglab olinganligi, bu avlodning o'z o'tmishiga, oliyanob milliy va diniy an'alariga hurmat bilan qarash, ularni asrab-avaylash ruhida tarbiyalanayotganligi, ayni chog'da hozirgi zamon jahon sivilizatsiyasi va ma'naviyati qadriyatlarini o'zlashtirish va ularga oshno bo'lish zarurligi ravshan anglab yetilganligi, mana shularning hammasi hayotbaxsh bir zamindirki bizning yangilanish va xalqimizning milliy o'zligini anglashini oshirish, aholining siyosiy yetukligini va faolligini kuchaytirish borasidagi siyosatimiz mana shular zaminga tayanadi. Diniy qadriyatlar yoshlarni ruhiyatini mustahkamlashda muhim ahamiyatga ega. Diniy marosimlar, ibodat va boshqa diniy faoliyatlar orqali yoshlar o'z ruhiyatlarini kuchaytiradilar stressni yengishga yordam beradigan resurslarga ega bo'lishadi.

Davlatimiz rahbari Shavkat Mirziyoyevning, Milliy taraqqiyot yo'limizni qat'iyat bilan davom ettirib, yangi boqichga ko'taramiz", Erkin va farovon, demokratik O'zbekiston davlatini birgalikda barpo etamiz"(T.. "O'zbekiston", 2016.), "Tanqidiy taxlil, qat'iy tartib-intizom va shaxsiy javobgarlik-xar bir rahbar faoliyatining kundalik qoidasi bo'lishi kerak" (T.. O'zbekiston, 2017), "Milliy tiklanishdan-milliy yuksalish sari" (T.. O'zbekiston, 2020) kabi asarlari, shu yo'nalishdagi qarorlar va farmonlar, Prezidentimizning joylardagi chiqishlari va maruzalarida yaqqol namoyon bo'lmoqda. Ayni shu manoda, istiqbol yillarida xalqimizning bunyodkorlik sohasida samarali ishlarini

boshqargan davlatimiz rahbarlarining o'tgan yillardagi islohotchilik faoliyati hamda ushbu masalaga bag'ishlangan g'oya va konsepsiyalarni bizning maqolamiz uchun muhim ahamiyatga ega bo'lib, ma'naviy taraqqiyot tamoyillari asosida kishilik jamiyatini ma'naviyatini tarbiyalashga asos bo'la oladi. "O'zbek xalqining tarixi va madaniyati" (O'zbekiston Respublikasi Fanlar Akademiyasi), bu kitobda Ozbekiston tarixidagi milliy qadriyatlar an'analar, urf odatlari bu qadriyatlar, yoshlarning ongini takomillashtirishda muhim ahamiyatga egaligi haqida ma'lumotlar keltirilgan "Milliy g'oya va ma'naviyat" (O'zbekiston Respublikasi Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirligi), "Ruhiiy tarbiya va diniy qadriyatlar" (Oliy ta'lim muassasalari) bu asar ruhiy tarbiya va diniy qadriyatlarni o'rganishga qaratilgan bo'lib diniy marosimlar va ibodatlarining ruhiy salomatlikka ta'siri, yoshlarni ruhiyatini mustahkamlashda diniy qadriyatlarning roli haqida aytib o'tilgan Xalqimizning va ma'naviy merosini boyitishga o'z hissasini qo'shishga chorlayotgan chet ellik birodarlarimiz yoshlar ma'naviyatini shakllantirishga o'z hissalarini qo'shib kelmoqdalar.

O'tmish tarixni varaqlar ekanmiz, yoshlar ma'naviyatiga, dunyoqarashiga, axloq-odobiga bag'ishlab o'lmas asarlar qoldirilgan donishmandlarni alohida eslatib o'tishimiz lozim. Shu o'rinda Nizomulmulkning "Siyosatnoma", "Rushnoinoma", Yusuf Xos Hojibning "Qutadg'u bilig", Mahmud Qoshg'ariyning "Devoni lug'otit turk", Kaykovusning "Qobusnoma", Ahmad Yugnakiyning "Hibat ul-haqoyiq", Alisher Navoiyning "Mahbub ul-qulub", "Vaqfiya" kabi qimmatli, sarmazmun, esda qolarli asarlarini hali haligacha eslasak arziydi.

Boy o'zbek madaniyati, ma'naviyati, ma'rifati bugun o'zining milliyligini saqlab qolgan holda, har tomonlama yetuk, barkamol insonni tarbiyalash, barqaror ijtimoiy-madaniy muhitni qurish, jamiyatda sog'lom, yetuk etsagina o'zining asosiy vazifalarini bajargan bo'ladi. Shunda bugungi kunlarda yurtimizda keng jaranglayotgan "Yangi O'zbekiston-Uchinchi Renessans sari" shiorini real harakatga keltira olamiz", -deb yozadi tarix fanlari doktori, professor A. Mavrulov o'zining "Yangi O'zbekiston" gazetasining 2021-yil 10-dekabr sonida chop etilgan "Madaniyat va Uchinchi Renessans yoxud beqiyos

iroda kuchi va vijdon amri bilan”maqolasida.

Xulosa qilib aytganda Har bir yosh avlodning dunyoga kelishi, sog'lom ruhda o'sishi, xulq atvori, odobi, ma'naviyatining shakllanishi albatta oiladan boshlanadi. Yoshlarda oliyjanob ma'naviy fazilatlarni shakllantirish, o'ziga, o'zligigga bo'lgan ishonchni oshirish ko'ndalang masala qilib qo'yilmoqda. Qishloq yoshlari ma'naviyatini shakllantirish va har tomonlama boyitishda mustaqillik yillarida faoliyat ko'rsatayotgan “Kamolot”, “Mahalla”, “Soglom avlod uchun” ,“Nuroniylar”, “Ulugbek”, Madaniyat va ma'rifat”, “Oltin meros”, va boshqa jamg'armalar obyektiv shart sharoitlar, subyektiv omillar,sifatida yoshlarning dunyoqarashini, kechasi va bugunini, ma'naviyatini yuksaltirishda xizmat qilib kelmoqda. Yoshlar masalasida birinchi prezidentimiz I. Karimov ham ko'plab masalarni ilgari surganlar yani, o'sib kelayotgan yosh avlodga, uning ma'naviy tarbiyasiga, nihoyatda katta javobgarlik hissi bilan yondashish masalasi, “axir yoshlar xalq ma'naviyatining ham mahsuli,ham kelajagidir. Shuning uchun ham har bir o'g'il-qizlarimiz dastlabki qadamlardan madaniy boyliklarimizdan bahramand bo'lishi kerak deb”ta'kidlaganlar.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. M. Mamatov Yangilanayotgan O'zbekistonning ma'naviy taraqqiyot tamoyillari barkamol avlodni tarbiyalash omili. T-“Makon Savdo Print”. SHdpi f.f.n.,-2024-222-b. E-mail:mamatovmahmud51@gmail.com
2. Гофуров З., Сиддигов Б. Маънавий юксалиш тараккиёт омили 1qism Тошкент: 1994. 134b
3. Эркаев А. Маънавият. Fals. f.f.d(Phd) diss.avtoref. –Toshkent:O'zMu, 1997 .
4. Яхшиликов Ж. Я., Мухаммадиев Н. Э Миллий гоё тараккийот стратегияси.- Тошкент: Фан ,2017.-Б.104.
5. Т.Худойқулов. Qishloq yoshlarining ma'naviyatini shakllantirish,unga milliy va diniy qadriyatlarning ta'siri.Falsafa.Fan.Falsafa.dotsent.(Tarix. Fan. nomzod. Dot.)

6. Рузиева Р. Жамиятнинг маънавий янгиланишида миллий ва умуминсоний кадриятлар уйғунлигини шакллантириш масалалари. Фалсафа фанлари доктори диссертация. Тошкент: 2012. Б.89.